

PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA IJTIMOIIY PERSEPSIYA SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mirzayev Sardor Amrillayevich

Qarshi davlat universiteti doktoranti

mirzayevsardor060@gmail.com

+998912170816

0009-0004-2612-7701

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada jahonda ta'lim jarayonining asosiy tashkilotchilari sifatida o'qituvchilar psixologik va pedagogik tayyorgarligini oshirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolariga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, o'qituvchilar ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy kompetensiyalarini tarkib toptirish hamda ijtimoiy muhitda shaxslararo samarali munosabatlarni tashkil etishga innovatsion, integrativ, aksiologik va akmeologik yondashuvlarni amalga oshirish muammolariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamizda pedagogik ta'lim jarayonini takomillashtirish raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, uzluksiz ta'lim mazmunini yangi bosqichga ko'tarish hamda ta'lim jarayonlarini samaradorligini oshirishda pedagoglar kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko'tarishning muhim omili ekanligini inobatga olgan holda ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Muammoning fundamental tavsifiga to'xtalgan holda Prezidentimiz "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur" deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Kalit so'zlar: pedagogika, persepsiya, kompetentlik, sifat, ijtimoiy, ta'lim, metodika

РАЗВИТИЕ КАЧЕСТВ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются проводимые в мире исследования, посвящённые проблемам повышения психологической и педагогической подготовки учителей как основных организаторов образовательного процесса, а также развитию их профессиональных компетенций. В частности, особое внимание уделяется вопросам повышения социальной активности учителей, формирования их социальных компетенций, а также реализации инновационных, интегративных, аксиологических и акмеологических подходов к организации эффективных межличностных отношений в социальной среде.

В нашей Республике совершенствование процесса педагогического образования рассматривается как важный фактор в подготовке конкурентоспособных кадров, повышении качества образования, выведении содержания непрерывного образования

на новый уровень, а также в повышении эффективности образовательного процесса, принимая во внимание необходимость вывода профессиональной подготовки педагогов на качественно новый этап.

Отмечая фундаментальный характер данной проблемы, наш Президент особо подчеркнул: «Необходимо решить ещё одну крайне важную задачу — это профессиональный уровень педагогов и профессорско-преподавательского состава, их специальные знания. В этом направлении следует создать среду, которая будет активно способствовать процессам обучения, духовно-просветительского совершенствования и формирования подлинных ценностей».

Ключевые слова: педагогика, перцепция, компетентность, качество, социальный, образование, методика

DEVELOPMENT OF SOCIAL PERCEPTION QUALITIES IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Annotation: This scientific article examines a number of studies conducted around the world on improving the psychological and pedagogical training of teachers as the main organizers of the educational process and on developing their professional competencies. In particular, special attention is paid to the issues of increasing teachers' social activity, forming their social competencies, and implementing innovative, integrative, axiological, and acmeological approaches to organizing effective interpersonal relations in the social environment.

In our Republic, the improvement of the pedagogical education process is regarded as an important factor in training competitive personnel, enhancing the quality of education, elevating the content of continuous education to a new level, and increasing the efficiency of educational processes. Taking into account the necessity of advancing teachers' professional training to a new stage, this issue receives special attention.

Highlighting the fundamental nature of this problem, our President has emphasized: "Another very important issue that must be addressed is the professional level of teachers and the faculty, as well as their specialized knowledge. In this regard, it is necessary to create an environment that actively supports the processes of learning, spiritual and moral development, and the formation of true values."

Keywords: pedagogy, perception, competence, quality, social, education, methodology

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlarini liberal, demokratik uslubda tashkil etish yosh avlod kommunikativligini, kreativ sifatlarini rivojlantirishga, pragmatik ta'limni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Shunga ko'ra qator xalqaro ta'lim tashkilotlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, jumladan, Sarbon deklaratsiyasi

(Sorbonne Declaration), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)) konsepsiyasi va Lissabon Konvensiyalarida ham pedagoglarni jamiyat talablari asosida tayyorlash hamda ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son [1], 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari [2], 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [3], 2019-yil 16-yanvardagi PQ–4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–4884-son [4] Qarorlari sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogik ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuv, o'qituvchi nutqi va kommunikativligini oshirish muammolari respublikamiz olimlaridan V. Karimovanning «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» nomli asarida [5], E. G'oziyev „Umumiy psixologiya“ darsligi [6]

V. Karimovanning «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» nomli asarida ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari ichida **shaxsning ijtimoiylashtirilishi**, ya'ni jamiyat ichida o'z o'rnini, rollarini anglash jarayoni katta o'rin egallashini ta'kidlaydi. U oilaning ijtimoiy tarbiyada – shaxsni idrok etish, jamiyat bilan o'zaro munosabatini shakllantirishda birinchi darajali muhit ekanligini bildiradi. Masalan: "ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila ... bolaning o'zligini anglashi, ijtimoiy rollarni qabul qilishi jarayonida muhim" deb ta'kidlangan. V. Karimova ijtimoiy idrok persepsiya jarayonida **qadriyatlar, shaxslararo munosabatlar, emotsional-hissiy aloqalar** muhim omillar ekanligini qayd etadi.

Masalan, “qadriyatlarni shaxslararo idrok jarayonidagi asosiy komponentlardan biri sifatida tadqiq etish ...” degan ifoda paydo boʻlgan. U

ijtimoiy psixologiya nazariyasi va amaliyotini birlashtirish — ya’ni shaxslararo idrok (persepsiya) jarayonlarini nazariy – metodologik jihatdan, shuningdek amaliy nuqtai nazardan ham koʻrib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

E. Gʻoziyev „Umumiy psixologiya” darsligida: psixika, ong, faoliyat, idrok va bilish jarayonlarini keng va integrativ nuqtai nazardan koʻrib chiqadi. Unda idrok (persepsiya) faqat sezgilar natijasi emas — insonga xos faoliyatga yaqin jarayon sifatida koʻriladi. Bu yondashuv ijtimoiy idrok (shaxslarning bir-biri haqida tushunishi va baholashi) uchun nazariy poydevor boʻlishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik ta’lim jarayonida talabalarda ijtimoiy persepsiyaning shakllantirish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida ushbu muammoga doir takomillashtirilgan model hamda metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Pedagogik eksperiment uch bosqichda tashkil etildi:

Ta’kidlovchi bosqich – pedagogik va psixologik manbalar asosida ijtimoiy persepsiya muammosiga doir nazariy asoslari oʻrganib chiqildi, tajriba-sinov obyektlari tanlab olindi, talabalarda ijtimoiy persepsiya rivojlanganligining joriy holati aniqlashtirildi, tajriba va nazorat guruhlarini belgilab olindi.

Shakllantiruvchi bosqich – tadqiqotimiz davomida talabalarda ijtimoiy persepsiyaning rivojlantirishga doir takomillashtirilgan metodika va model sinovdan oʻtkazildi. Tajriba guruhlarida pedagogik ta’lim jarayonida tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “Persepsiya dasturi”dan foydalangan holda nazariy va amaliy mashgʻulotlar tashkil etildi.

Yakunlovchi bosqich – tajriba va nazorat guruhi talabalarida ijtimoiy persepsiyaning rivojlanganlik koʻrsatkichlari aniqlandi, tajriba boshidagi koʻrsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi, barcha toʻplangan sonli ma’lumotlar matematik statistik tahlil qilindi. Ushbu tahlillar asosida takomillashtirilgan metodikaning samaradorligi aniqlashtirildi.

Pedagogik eksperimentning dastlabki bosqichida tadqiqot muammosiga doir joriy holatni aniqlash maqsadida tashkil etilgan suhbatlar va so'rovnoma jarayonida quyidagi savollardan foydalanildi:

- 1) boshqalarning fikrlarini diqqat bilan eshita olish uchun kishida qanday sifatlar mavjud bo'lishi lozim?
- 2) sizga qanday holatda ham suhbatingizning fikrini tinglash qiyinlik tug'diradi?
- 3) nima uchun ba'zi insonlar o'zlarining nuqtayi nazarlariga qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?
- 4) do'st bo'lish uchun albatta bir xil yoshda bo'lish shartmi?
- 5) madaniy jihatdan turli-tumanlik ijobiy tavsifga egami yoki salbiy?
- 6) o'zga millat vakillariga nega hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim?
- 7) o'g'il bolalarning qizlarga qaraganda o'zlarini ustun qo'yishlari to'g'rimi?
- 8) boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kishilarni o'z diniga e'tiqod qilishga da'vat etish to'g'rimi?

Pedagogik eksperiment davomida talabalarda perseptiv sifatlarining shakllanganlik darajalarini aniqlash maqsadida har bir mezon mazmuniga muvofiq quyidagi diagnostik metodikalardan foydalanildi:

mezon: suhbatdoshini to'g'ri kuzatish va tinglay olish

Ushbu mezon bo'yicha talabalarda suhbatdoshini turli sezgi kanallari (tinglash, ko'rish, teri-taktil sezgilari orqali anglash ko'nikmalari shakllanganligini aniqlashga harakat qildik. Ushbu maqsadda S. Yefremsevning "Idrokning yetakchi kanalini aniqlash" diagnostik metodikasidan foydalanildi. Bu metodika S. Yefremsev tomonidan dominant perseptiv modallikning diagnostikasini o'tkazish maqsadida ishlab chiqilgan.

Perseptiv jarayonda tashqi olamni idrok etish kanallarining ustuvorligiga ko'ra audial, vizual va kinestik tiplarga ajratiladi.

Audial idrok (eshitish idroki) – eshitgan ma'lumotlariga ustuvorlik beriladi, ko'proq ushbu ma'lumotlarga tayaniladi;

Vizual idrok (vizual idrok) – ko'rish sezgisi orqali olingan ma'lumotlarga ustuvorlik beriladi;

Kinestetik idrok (taktil idrok) – ma'lumotlarning aniq bo'lishi uchun teri sezgisidan foydalaniladi.

Tashqi olamni perseptiv idrok etishda insonlar turli sezgi kanallariga ustuvorlik berishlariga ko'ra farqlanadilar. Inson o'zida va atrofdagi insonlarda qaysi sezgi kanallari orqali ma'lumotlar yaxshi qabul qilinishini bilishlari ijobiy va mustahkam munosabatlarni o'rnatishga hamda ta'sir usullarini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Ya'ni suhbatdoshining qaysi sezgi kanali orqali olingan ma'lumotlarga ustuvorlik berishini aniqlab, so'ng ta'sir usullarini tanlash suhbat natijasining samarali bo'lishiga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "persepsiya", "ijtimoiy persepsiya", "empatiya", "identifikatsiya", "refleksiya", "kongruyentlik", "attraksiya" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ilmiy-pedagogik jihatdan ochib berilganligi, pedagogik ta'limning talabalarda ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirishga doir imkoniyatlari nazariy tahlildlar asosida aniqlashtirilganligi hamda mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirish jarayonining takomillashtirilgan funksional modeli ishlab chiqilganligi, imitatsion mashqlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda talabalarda ijtimoiy persepsiya sifatlarini rivojlantirishga doir metodika va maxsus dastur ishlab chiqilganligi,

talabalarda ijtimoiy persepsiya sifatleri rivojlanganligini diagnostik o'rganish metodikasi modifikatsiya qilinganligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son
2. 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari,
3. 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

4. 2019-yil 16-yanvardagi PQ–4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ–4884-son Qarori
5. V. Karimovanning «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» darsligi – T.: Universitet, - 1999. 96 b.
6. E. G’oziyev „Umumiy psixologiya” darsligi - T.: Universitet, - 2004. 2-nashr 2 – jildidan iborat.